"ADOLAT"
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

"HUQUQ va BURCH+" —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



O‘zbekiston Respublikasida ombudsman: tarixi va buguni

Jaxongir Xayitov,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti yuridik fakulteti talabasi
e-mail: hayitov@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada inson xuqularini ximoya qilish borasidagi amalga oshirilgan va hozirda amalga oshirilayotgan ishlar o‘rganiladi. Ayniqsa, mamlakatimizda inson xuquqlarni himoya qilish tizimi, taraqiyot bosqichi, amalga oshirayotgan ishlarining zarurligi va dolzarbligi. Shuningdek, inson xuquqlarini himoya qilish bosqichidagi yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar hamda ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar yoritib beriladi.

Калит сўзлар. Омбудсман, Уйғониш даври, Олий Мажлис, МДҲ, Ижроия ҳокимияти органлари, Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари вакили, Экспертиза, нодавлат институт.

Аннотация. В данной статье рассматривается проделанная и проводимая в настоящее время работа по защите прав человека. В частности, система защиты прав человека в нашей стране, этап развития, необходимость и актуальность проводимой работы. Также будут освещены ошибки и недостатки, допущенные на этапе защиты прав человека, а также предложения, направленные на устранение этих проблем.

Ключевые слова. Омбудсман, Эпоха Возрождения, Олий Мажлис, СНГ, органы исполнительной власти, Уполномоченный Олий Мажлиса по правам человека, Экспертиза, негосударственный институт.

Annotation. This article examines what has been done and is currently being done to protect human rights.Especially the system of protection of human rights in our country, the stage of development, the necessity and relevance of the work being done.Also, the mistakes and shortcomings made at the stage of human rights protection, as well as proposals aimed at eliminating these problems, are highlighted.

Keywords. Ombudsman, Renaissance, Oliy Majlis, CIS, Executive Authorities, Human Rights Representative of the Oliy Majlis, Expertise, non-governmental institution.

Inson huquqlari – shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, kamolot topishi, uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlaridir.

Inson huquqlari va erkinliklari tizimi o‘z yaraish ibtidosi va rivojlanish mantiqiga ega. Adabiyotlarda “inson huquqlarining uch avlod” bosqichi haqida ko‘rsatilgan. Ular quyidagilardan iborat: Inson huquqlarining “birinchi avlodi” – fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi.

Inson huquqlarining “ikkinchi avlodi” – bir qator ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro‘y berdi.

Inson huquqlarining “uchinchi avlodi” – “hamjihatlik huquqlari” deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv xarakterga ega. Umumiy e’tirof etilgan qoidaga ko‘ra, bu huquqlar: tinchlikka bo‘lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof-muhitga bo‘lgan huquq, insoniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalar.

Insonning o‘z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko‘tarilgan quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘zining moddiy ifodasini topgan:

Erkinlikning Buyuk Xartiyasi (1215-yil);
Huquq to‘g‘risidagi petitsiya (1628-yil);
“Habeas Corpus Akti” (1679-yil);
Huquqlar to‘g‘risidagi Bill (1689-yil);
Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil).

Inson huquqlari barcha insonlarning umumiy va ajralmas huquqlari bo‘lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegiшли bo‘lmasa-da, hamma uchun bir xildir.

Uyg‘onish davri mutafakkirlari Sharqning mashhur huquqshunoslaridan biri Imom Burhoniddin al-Marghinoniy har bir insonning tabiiy huquqlariga, u ana shu davlatning fuqarosi ekanligidan yoki aksinchasidan qat’i nazar, rioya etilishini qonunlashtirish va ta’minlash zarurligi to‘g‘risidagi g‘oyasini yoqladilar.Hozirgi kunda ushbu vazifalarni amalga oshirish va inson huquqlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan siyosiy tashkilotlardan biri bu Ombudsmendir.

Ombudsman so‘zi – (shved tilidan olingan bo‘lib, biron kishi manfaatlarining vakili degani) bugun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ko‘p ishlatiladigan atama. Negaki, uni inson huquqlarini himoya qiluvchi sifatida tushunishadi.

Dunyoda birinchi marta Ombudsman lavozimi 1709-yil Shvetsiya qirolligi huzurida joriy qilingan. Hozirgi vaqtda u jahonning 110 dan ortiq mamlakatida mavjud. Ombudsman institutini tashkil etilishiga qarab 2 turga bo‘lish mumkin: parlament tomonidan tayinlanadigan (saylanadigan) klassik tipdagi va ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadigan Ombudsmanga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) instituti 1995-yilda tashkil etilgan. Ushbu institut MDH

hududida birinchilardan bo‘lib O‘zbekistonda ta’sis etilgan. O‘zbekiston Ombudsmani ham klassik Ombudsman hisoblanadi. Ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadigan Ombudsman huquqlari biroz chegaralangan. Ular alohida sohalarga qarab tekshirish huquqiga ega. Masalan, kasalxonalar, jazoni o‘tash muassasalari, bolalar, nogironlar huquqini himoya qilish, harbiy xizmatchilar, jinoyatlardan jabrlanganlar, soliq muassasalari bo‘yicha shug‘ullanadigan alohida sohalarga. O‘zbekiston Respublikasida Ombudsman faoliyatining huquqiy asoslari birinchi marta “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni (1997-yil 24-aprel)da belgilab berilgan edi. Mazkur qonunga ko‘ra, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) – mansabdor shaxs bo‘lib, unga O‘zbekiston Respublikasida davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini ta’minlash vakolatlari berilgan. Vakil o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalariga asoslanadi. Vakil o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshiradi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

Bolalar huquqlari bo‘yicha Ombudsman yoki vakil lavozimi birinchi bo‘lib Norvegiyada 1982-yilda ta’sis etilgan. Shvetsiyada esa bunday institut 1993-yilda faoliyat boshlagan. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bolalar bo‘yicha Ombudsman instituti faoliyat ko‘rsatmoqda. Prezidentimizning 2019-yil 22-apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi joriy etilishi natijasida mamlakatimizda bola huquqlari himoyasining tashkiliy va institutsional asoslari yanada mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Bola huquqlari bo‘yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari belgilandi.

2024-yil 13-fevral kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman)ning 2023-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti eshitildi. Ta’kidlanishicha, o‘tgan davrda Ombudsman tomonidan fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, qonunchilikni va normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha monitoringlar olib borilgan. O‘tgan yil davomida Ombudsman tomonidan sudlarga kiritilgan sal kam 100 ta ariza va da’vo arizalarining 98 foizi qanoatlantirilgan. Ombudsman kotibiyati xodimlari ham aholi murojaatlari va so‘rovlari asosida sud majlislarida 249 marotaba kuzatuvchi sifatida ishtirok etishgan. Ombudsman tomonidan fuqarolar hamda mahkum (mahbus) va ularning yaqinlari manfaatida undirilgan va undirilishi belgilangan mablag‘lar 2 milliard 150 million so‘mni tashkil etgan. 2023-yilda Ombudsmanga yuborilgan murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasida 12 ta jinoiy ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, 1 ta holatda jinoiy ish qayta malakalandi. 57 ta

holatda jinoiy ish qo‘zg‘atishni rad etish haqidagi qarorlar tegishli prokurorlar tomonidan bekor qilingan. Shu bilan birga, Ombudsman hamda Vakil boshchiligidagi Jamoatchilik guruhlari tomonidan o‘tgan yilda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga 603 marotaba monitoring tashriflari amalga oshirilgani aytib o‘tildi. Tashriflar chog‘ida aniqlangan ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda salbiy holatlarning hanuzgacha saqlanib qolayotgani ta’kidlandi. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) F. Eshmatovaning qayd etishicha, murojaatlarda asosan dastlabki tergovda yo‘l qo‘yilgan protsessual kamchiliklar sud jarayonida aniqlanganda, sudya tomonidan ta’sir chorasi qo‘llanilmasligi, sudya iltimosnomani rad etishi, majlis bayonnomasiga tomonlar chiqishlarining kiritilmasligi, guvohlarni chaqirishni rad etish va ularni so‘roq qilmaslik, ekspertiza o‘tkazishni rad etish, advokat chiqishini keyinga qoldirish kabi holatlar ko‘rsatilgan. Murojaatlarda ko‘rsatilgan holatlar sud qarorlarining qonuniyligi, xolisligi va adolatliligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, fuqarolarning Ombudsman nomiga sud tergovining to‘liq emasligi va ba’zan bir yoqlamaligi, Jinoyat kodeksi normalarining noto‘g‘ri qo‘llanilayotganligi, sud jarayonlari o‘z vaqtida boshlanmasligi hamda jazoning adolatsizligidan norozi bo‘lib Ombudsman xodimlarini sudda kuzatuvchi sifatida ishtirok etishini so‘rashgan.

Xususan, oilaviy zo‘ravonlik holatlari ko‘payib borayotgani dahshatli. Tasavvur qiling, joriy yilning to‘qqiz oyida qarindoshlar, jumladan, yaqinlar tomonidan bolalarga nisbatan 166 ta zo‘ravonlik holatlari qayd etilgan. Afsuski, hatto rasmiy statistika ham o‘lchovni ob’ektiv baholashga imkon bermaydi. O‘zbekistonda 2023-yilning to‘qqiz oyida 1240 ta voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari qayd etilgan bo‘lsa, shundan 417 tasi jinsiy zo‘ravonlik, shuningdek, joriy yilning o‘tgan 7 oyida esa 21 871 nafar xotin-qizlar tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan.

Ushbu holatlarning yuzaga kelishida bir narsani hisobga olishimiz kerak. Sodir etilgan jinoyatlarni bartaraf etishni u sodir etilganidan so‘ng emas, balki sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni oldini olishga qaratilishi samaraliroqdir, buni jahon tajribasidan ham bilishimiz mumkin. Shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, dastlabki tergovda yo‘l qo‘yilayotgan protsessual kamchiliklar, sud protsessida yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarning oldini olish maqsadida Ombudsmanga bir qator vakolatlar berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xususan, voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik kabi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida Ombudsman xodimlarining ishtirokini shart qilib belgilashni taklif etamiz. O‘z huquqlaridan xabardor bo‘lish va ulardan to‘g‘ri foydalana olish qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslar, vasiylar va xomiylar qaramog‘idagi shaxslarning huquqlarini poymol qilish singari holatlarning oldini olish maqsadida, Ombudsman vakillari joylarda jamoatchilik orasida qator targ‘ibot ishlarini, xususan, “O‘z huquqingni anglash” singari mavzularda davra suhbatlarini olib borishlari lozim. Shuni unutmmasligimiz kerakki, qayerda bo‘lmasin, inson o‘z huquqlarini chuqur anglab etgan bo‘lsa, unga nisbatan tazyiq, zo‘ravonlik va qonunlar buzilishiga imkon bermaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashning 46-sessiyasidagi so‘zlagan nutqida 2030-yilgacha

mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni ko‘zda tutadigan “hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyilidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yuritayotgan siyosat markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadi mujassam. So‘nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, eng avvalo, jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta’minlashga, shuningdek, inson sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, qonuniy manfaatlari cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan keng ko‘lamli ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Bularning hammasi xalq farovonligi, millat ravnaqini ko‘zlab qilinayotganligi barchamizga ayon.

Bugungi kunda jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilishning normativ va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Natijada, O‘zbekiston xalqaro huquqning sub’ekti sifatida inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlik borasida ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarilgani e’tirof etilmoqda. Mamlakat xalqaro norma ijodkorligi faoliyatining faol ishtirokchisi sifatida yangi xalqaro shartnomalarning tashabbuskori sifatida jahon maydoniga dadil chiqayotgani buni tasdiqlaydi.

Ta’kidlash lozimki, inson asli hur yaratilgan. Uni kamsitishga, o‘z manfaati yo‘lida huquqlarini poymol etishga, ruhiy va jismoniy qiynoqqa solishga hech kim haqli emas. Shunday ekan, turli davlat va nodavlat institutlari inson huquqlarini tiklash, adolatni qaror toptirish yo‘lida barcha fidoyi insonlar, jamoat tashkilotlari mas’ullari hamda xalqning ishonchli vakillari hamkorlikka birlashishi lozim. Agar birgalikda harakat qilinsa, ko‘zlangan maqsadimizga, albatta, erishish mumkin. Bularning zamirida, eng avvalo, Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so‘zsiz bajarish, “inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bu boradagi islohotlarning bosh mezoni bo‘lib qoladi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Ayni paytda biz inson huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta’minlashda amalga oshirgan ishlarimizdan ko‘ra, oldimizda turgan vazifalar ko‘p ekanini ham yaxshi tushunamiz.

Ma’lumki, bu oliy qadriyatni tom ma’noda qaror toptirish – biron-bir manzilga yetib borib to‘xtash, degani emas. Inson huquqlarini himoya qilish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini barchamiz chuqur anglaymiz.”.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, har qanday davlatda ham ichki muammolar mavjud. Ushbu muammolarning yechimini faqat bir tomonlama hal qilinishi esa adolatsiz qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, adolatsizliklarning oldini olish maqsadida nazoratchi tashkilot sifatida Ombudsman jalb etish va u bilan birga hamkorlikda ish olib borish bu mamlakatimiz ko‘zlagan taraqqiyot sari qo‘yilgan bir pilla poya bo‘ladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Фойдаланилган адабиётлар

Сатторов А., Омбудсман – ҳуқуқ ҳимоячиси, Т., 2000.
Акмал Саидов. ЎзМЭ. Биринчи жилд. Тошкент 2000.

Ўзбекистон миллий энциклопедияси (2000-2005).

.

Инсон хуқуқлари умумжаҳон декларацияси.

Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) Ахборот хизмати.

https:// uz .Wikipedia.org/w/ index.php.

.

lex.uz/acts/276159.

.